

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi

BD-5110100-3.01

2016-yil "9" - o'l

2016-yil "12" - o'l



**UMUMIY PSIXOLOGIYA**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika  
Ta'lim yo'nalishi:

- 5110100 – matematika o'qitish metodikasi
- 5110200 – fizika va astronomiya o'qitish metodikasi
- 5110300 – kimyo o'qitish metodikasi
- 5110400 – biologiya o'qitish metodikasi
- 5111500 – geografiya o'qitish metodikasi
- 5110600 – tarix o'qitish metodikasi
- 5110700 – informatika o'qitish metodikasi
- 5110800 – tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
- 5111100 – musiqa ta'limi
- 5111200 – o'zbek tili va adabiyoti
- 5111300 – ona tili va adabiyoti ( tillar bo'yicha)
- 5111400 – xorijiy tillar va adabiyoti (tillar bo'yicha)
- 5111500 – chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik
- 5111600 – milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
- 5111700 – boshlang'inch ta'lim va sport- tarbiyaviy ish
- 5111900 – defektologiya
- 5112000 – jismoniy madaniyat
- 5112100 – mehnat ta'limi

TOSHKENT – 2016

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016- yil "22 01" dagi "26"  
-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-  
uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2016-yil "9"  
01 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida  
ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

#### **Tuzuvchilar:**

N.S. Safayev - Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy psixologiya" kafedrası  
professori, psixologiya fanlari doktori

SH.A. Do'stmuxamedova - Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy psixologiya"  
kafedarsi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

P.S. Ergashev - Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy psixologiya" kafedarsi  
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

M.B. Djumabayeva - Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy psixologiya" kafedarsi  
katta o'qituvchisi

#### **Taqrizchilar:**

SH.Qurbonov – 1- Toshkent Pedagogika kolleji direktori, pedagogika fanlari  
doktori, professor

D.Saliyeva - Qo'qon DPI " Pedagogika psixologiya" kafedrası mudiri,  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti  
o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2015-yil  
"12" 11 dagi 5 -sonli bayonnomasi)

## KIRISH

Ushbu dastur umumiy psixologiya fanining mohiyati, psixikani rivojlanishi, shaxs psixologiyasi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik holatlar hamda shaxsning shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan psixologik, fiziologik va jismoniy o'zgarishlar, shuningdek shaxsga xos sifat, xususiyat, holatlar ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishning yoshga bog'liq jihatlarining psixologik mexanizmlarini o'z ichiga qamrab oladi.

### Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan **maqsad** - talabalarda umumiy psixologiya fani, psixika, shaxs, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlari, irodaviy sifatlar, hissiy holatlar, individual-xususiyatlarga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir, hamda bo'lajak pedagog mutaxassislar tomonidan psixik taraqqiyot qonuniyatlari, davrlari, mexanizmlari, omillari va shart-sharoitlari haqidagi zamonaviy ilmiy bilimning o'zgartirilishini tashkil etishdir.

Fanning **vazifasi** - talabalarga umumiy psixologiyaning mohiyati, psixika va ong tushunchalari, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar, psixik rivojlanish va uning o'ziga xos xususiyatlari, yosh davrlari tasnifi, psixik taraqqiyotning turli bosqichlari uchun xos psixofiziologik va psixologik xususiyatlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

### Fanbo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakasiga qoyiladigan talablar

“Umumiy psixologiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi;
- psixologiyaning sohalari;
- psixologiya va falsafaning o'zaro aloqasi;
- psixologiya va ilmiy – texnik taraqqiyot;
- pedagog faoliyatida psixologiyaning etakchi ahamiyatga ega ekanligi;
- psixika tirik mavjudotning ob'ektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi;
- psixika va ong munosabati;
- sharq mutafakkirlarning psixologik qarashlari;
- psixologiyani o'rganish metodlari;
- faoliyat va motivlar, faoliyatning asosiy turlari;
- odam psixikasining paydo bo'lishi;
- odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti;
- yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi;
- motivatsiya sohalari; psixik holatlar, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi;
- irodaviy xarakterlar va uni boshqarish;
- individ, shaxs, individuallik;
- shaxs faoliyati;
- shaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari

- muloqot va uning ko‘p maqomli xarakteri;
- nutq va uning funksiyalari;
- diqqat, uning fiziologik mexanizmlari, turlari;
- sezgi va idrokning fiziologik asoslari;
- xotira nazariyasi;
- xayol va uning turlari;
- tafakkur va xissiy bilish
- temperament nazariyasi, tiplari;
- xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog‘liqligi;
- qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasi bo‘yicha ***bilimga***;

-talaba shaxs, muloqot, faoliyat, bilish jarayonlari, shahsning individual xususiyatlari yuzasidan tushuncha, tasavvurga ega bo‘lish bilan birga, psixik rivojlanishga ta‘lim-tarbiya jarayonlarining ta‘siri yuzasidan olingan bilimlarni amaliy faoliyatga tadbiiq etish boyicha ***ko‘nikmasiga***;

–shaxs(o‘quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o‘rganuvchi metod va texnologiyalar;

-bilish jarayonlari va individual xususiyatlarning diagnostikasi va korreksiyasi;

–pedagogik jarayonni boshqarish;

–o‘quv eksperimentlar o‘tkazish;

–shaxs(o‘quvchi) psixikasining o‘ziga hos xususiyatlarini kuzatish;

–o‘quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo‘llay olish;

–psixologik ma‘rifiy ishlarni tashkil etish ***malakasiga ega bo‘lishi lozim***.

Yosh va pedagogik psixologiya o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

–umumiy psixologiya va yosh psixologiyasi;

–umumiy psixologiya va pedagogik psixologiya;

–fiziologik va psixologik rivojlanish jarayoni;

–yosh va pedagogik psixologiyaning o‘qituvchi faoliyatida tutgan o‘rni maktabgacha yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari;

–kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;

–o‘smir va o‘spirinlar psixologiyasi, ta‘lim, tarbiya va o‘qituvchi psixologiyasi haqida ***bilimga***;

–iqtidorli bolalar va ularni tanlash;

–yosh psixologiyasining paydo bo‘lishi;

–yosh psixologiyasini o‘rganish metodlari;

–ta‘limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o‘rni;

–maktabgacha yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari;

–kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;

–o‘smir va o‘spirinlar psixologiyasi;

–ta‘lim va aqliy taraqqiyot;

–pedagogik qobiliyat va uning turlari;

- o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan psixologik talablarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha *ko‘nikmaga*;
- o‘quvchilarning psixologiyasiga xos xususiyatlarni o‘rganish bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazish;
- bolalarning maktabga tayyorgarligi bo‘yicha xulosa bera olish;
- rivojlanish bosqichlaridagi psixologik xususiyatlar, ulardagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish;
- ta‘lim tarbiyadagi turli jarayonlar bo‘yicha maslahatlar olib borish;
- yosh psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish *malakalariga ega bo‘lishi lozim*.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

“Umumiy psixologiya” fani asosiy umumkasbiy fan hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish uchun o‘quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy (falsafa, pedagogika va h.k), matematika va tabiiy-ilmiy (informatika va axborot texnologiyalari, yosh fiziologiyasi va gigiena va h.k) blokidagi fanlar bilan aloqada o‘rganilib, bu fanlardan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

### **Fanning ta‘limdagi o‘rni**

“Umumiy psixologiya” fani pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida o‘qitiladigan, mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladigan fandır.

### **Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning “Umumiy psixologiya” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma‘ruza, seminar darslarida mos ravishdagi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

### **Asosiy qism**

#### **Umumiy psixologiya**

#### **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

Umumiy psixologiya fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Fanning predmeti va vazifalari. Psixik hodisalar, psixik rivojlanishning qonuniyat va mexanizmlari. Shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami orasidagi munosabat, voqelikni anglash, olamning psixologik tahlili, psixik hodisalarning kechishi, yosh taraqqiyotini davrlashtirish, ta‘lim-tarbiya mazmuni, psixologiyaning tarixiy va nazariy ahamiyati jamiyatda olib borilayotgan ishlar natijasidagi yutuqlari.

## **Umumiy psixologiya fanining predmeti**

Umumiy psixologiyaning predmeti, vazifalari. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida. Psixologik bilimlarning o'ziga xos tomonlari. Psixologiya fanining predmeti haqidagi tasavvurlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Psixologiyaning falsafa doirasidagi taraqqiyoti. Sharq mutafakkirlari (Al Forobiy, Abu Ali ibn Sino, ibn Rashid, G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Abu Bakir ar-Roziy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy va boshqalar) ning psixologik qarashlari. Psixologiya fanining nazariy hamda amaliy vazifalari. Psixologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot. Pedagog faoliyatida psixologiyaning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi.

## **Hozirgi zamon psixologiyaning tuzilishi va tadqiqot metodlari**

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari. Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi. Aniq faoliyatni o'rganuvchi psixologiya sohalari, rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari, shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatlarni o'rganuvchi psixologiya sohalari. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari va ularning tahlili, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so'rovnomma metodi, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.

## **Psixika va ongning taraqqiyoti**

Psixika haqida tushuncha, psixikaning orientirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi. Psixik aks ettirish - ob'ektiv olamning sub'ektiv obrazi ekanligi. Bosh miya va psixika. Odam psixikasining paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti.

Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, ko'nikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligi.

Psixika va ong munosabati. Ongning paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib yetmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi.

## **Faoliyat va motivatsiya**

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning psixologik tahlili. Faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o'ziga xosligi, faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi. Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallash. Faoliyatning asosiy turlari, oyin, talim va mehnat faoliyati mazmuni. A.N.Leontev boyicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar. Motivatsiya va emotsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari, Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, motiv muammosiga doir mulohazalar. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning ahamiyati.

## **Shaxs hissiy-emotsional sohasi**

Emotsiya va hissiyot haqida tushuncha. His-tuyg'ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi

emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Yuksak hislar. Hissiy ton, affekt, stress, praksik hislar, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hislar. Hissiyotning o'ziga xosligi. Hissiyotni boshqarish.

### **Muloqot**

Muloqot va nutq haqida tushuncha, muloqot turlari. Muloqotning inson psixik rivojlanishidagi ahamiyati. Muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri. Muloqot vazifalari. Muloqotning verbal va noverbal vositalari, muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir etish sifatida, muloqot insonlarning bir-birini tushunishi, muloqot texnikasi va usullari.

### **Shaxs**

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchasining mazmuni. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs psixologik strukturasi. Biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, konstitutsion nazariya, rollar nazariyasi mazmuni. Endopsixika va ekzopsixika haqida tushuncha. Dunyoqarash va e'tiqod.

### **Shaxsning o'z-o'zini anglashi**

Shaxsning o'zini-o'zi anglashi. "Men" konsepsiya va uning rivojlanishi. Shaxsning o'zini-o'zi anglashi va baholashiga ta'sir etuvchi omillar. Shaxsning o'ziga nisbatan ishonchini yuzaga keltirish va rivojlantirish. Shaxsning o'zini- o'zi boshqarishi muammosi. Milliy ong va milliy o'zini-o'zi anglash.

### **Diqqat**

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat. Diqqatning xususiyatlari, diqqat kuchi va bo'linishi, diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishi.

### **Sezgi**

Sezgilar haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, ekstretseptiv sezgilar, introretseptiv sezgilar, proprioretseptiv sezgilar, analizator va uning tuzilishi, sezgi sohasidagi qonuniyatlar.

### **Idrok**

Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari, idrokda ob'ekt va fon, appersepsiya, idrokning konstantligi. Idrokda illyuziya va gallyutsinatsiya. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish.

### **Xotira**

Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyalari. Xotira turlari, faoliyatga ko'ra xotira turlari, maqsadiga ko'ra xotira turlari, muddatiga ko'ra xotira turlari. Xotira jarayonlari, esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash, unutish. Xotira tiplari.

### **Xayol**

Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari, tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol, orzu, tush ko'rish va shirin xayol. Xayol sifatleri, xayolning kengligi va torligi, xayolning chuqurligi va realligi, xayolning

mazmundorligi va kuchi, fantaziya. Xayolning rivojlanishi.

### **Tafakkur**

Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi, tafakkurning chuqurligi, tafakkurning kengligi, tafakkurning mustaqilligi, tafakkurning ixchamligi, tafakkurning tezligi, tafakkurning turlari. Shakliga ko'ra tafakkur turlari, topshiriq xarakteriga ko'ra tafakkur turlari, fikr yoyiqligiga ko'ra tafakkur turlari, fikrning originallik darajasiga ko'ra tafakkur turlari. Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar. Muammoli vaziyat va uni hal qilish.

### **Iroda**

Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi. Irodaviy harakatlar va uni boshqarish. Shaxsning irodaviy sifatlari. Irodaning individual xususiyatlari. Irodani tarbiyalash.

### **Temperament**

Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tarixi. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari. Faoliyatning individual uslubi va temperament.

### **Xarakter**

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi, xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakter borasidagi ta'limotlar. Xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog'liqligi.

### **Qobiliyat**

Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo'lishi va tuzilishi. Qobiliyat va talantlarning tabiiy shartlari. Qobiliyat borasidagi nazariyalar, Qobiliyatlar rivojlanishi.

## **Yosh va pedagogik psixologiya**

### **Yosh va pedagogik psixologiya faniga kirish**

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyadagi ilmiy maktablar. Yosh va pedagogik psixologiya fanining o'qituvchi faoliyatida tutgan orni.

### **Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari.**

Yosh va pedagogik psixologiyaning tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so'rovnomma metodi, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi.



## **Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi**

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar). Yosh davrlarining etakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi.

### **Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar**

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug'ilish davri inqirozi. «Tirilish kompleksi» haqida. Go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati. Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

### **Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida (o'yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari, o'yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta'siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. J.Piaje fenomenlari haqida tushuncha. Maktabgacha yosh davrida tafakkur egotsentrizmi muammosi. Maktabgacha yosh davrida emotsional-irodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivatsion sohadagi o'zgarishlar. 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

### **Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv - affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (o'quv faoliyati, shaxslararo munosabatlarning motivatsion asoslari). Kichik maktab yoshi davrida bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori. Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari

### **O'smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

O'smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O'smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari. O'smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. O'smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi, o'quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari). O'smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari. O'smirlik davrida o'z-o'ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. O'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi.

### **Ilk o'spirinlik yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

Ilk o'spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o'spirinlik davrida do'stlashish muammosining psixologik xususiyatlari. Ilk o'spirinlik davrida muhabbat. Ilk o'spirinlik davrida o'zini-o'zi anglashning rivojlanishi. Ilk o'spirinlik davrida o'quv-kasbiy faoliyatning etakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi. Ilk o'spirinlikda kasbga yo'naltirishning psixologik muammolari.

### **Yoshlarni oilaviy hayotga tayorlash**

Oilaviy hayotga psixologik tayorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslararo munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

### **Ta'lim psixologiyasi**

Ta'limning psixologik mazmuni. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. O'qish faoliyati va uning turlari. Ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari. Ta'limni boshqarishning metodlari. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasi va uning mohiyati. Muammoli ta'lim va muammoli vaziyat. Ta'lim texnologiyalarining psixologik xususiyatlari.

### **Tarbiya psixologiyasi**

Shaxsni tarbiyalash metodlari va shakllari. Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati. Tarbiya metodlari va turlari. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. Tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlash metodlari. Ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari. Ideal. Jinsiy tarbiyalash. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri. O'z-o'zini tarbiyalashning metod va shakllari. Tarbiyaning psixologik mexanizmlari.

### **O'qituvchi psixologiyasi**

Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rnini va uning vazifalari. O'qituvchiga shaxsiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari. O'qituvchi o'quvchilarning hayot va faoliyati tashkilotchisi ekanligi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'qituvchining o'z malakasini oshirib borishning psixologik muammolari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot. Pedagogik ijodiyot va uning mohiyati. O'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va pedagogik jamoadagi psixologik iqlim. Bo'lg'usi o'qituvchi shaxsi sifatleri.

### **Talim muassasalarida psixologik xizmat**

Talim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologinining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo'yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo'yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish. Pedagog birlamchi psixologik yordam sub'ekti sifatida.

## **Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarda talabalar guruhlarda ishlash, mustaqil fikrni bayon etish, guruh taqdimotini amalga oshirishni o'rganadilar.

Seminar mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan taxminiy mavzulari va ularning mazmuni:

### **Umumiy psixologiya fanining predmeti**

Psixologiya predmetining ta'rifi. Umumiy psixologiyaning ob'ekti, vazifalari. Psixologiya tarixining asosiy bosqichlari. Psixika tushunchasining tahlili. Bosh miya va psixika muammosi. Psixika va ong. Ongsizlik holatlari. Psixologiyaning asosiy vazifalari. Psixologik bilimlarning amaliyotda qo'llanishi.

### **Hozirgi zamon psixologiyaning tuzilishi va tadqiqot metodlari**

Hozirgi zamon psixologiyasining tamoyillari. Umumiy psixologiyaning asosiy metodlari. Umumiy psixologiyaning yordamchi metodlari. Psixologiya fanining tarmoqlari. Pedagogik faoliyat davomida psixologik tadqiqot metodlaridan foydalanish.

### **Psixika va ongning taraqqiyoti**

Psixikaning filogenetik taraqqiyoti. Seskanuvchanlikni paydo bo'lishi haqidagi ilmiy farazlar. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari. Hayvonlarning instinktiv, individual va intellektual xatti-harakatlari. Odam psixikasining paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti. Ongning paydo bo'lishi va uning xossalari, taraqqiyoti.

### **Faoliyat**

Faoliyat haqida tushuncha. Ehtiyojlar, ularning turlari. Faoliyatning tuzilishi. Faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi. Faoliyatning asosiy turlari. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

### **Motiv va motivatsiya**

Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni. Motivlarning turlari. Motivatsiya haqida ilmiy nazariyalar. Motivlarning inson faoliyatidagi o'rni.

### **Muloqot**

Muloqot haqida tushuncha. Muloqot turlari, vazifalari. Muloqotning verbal noverbal vositalari. Muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir etish sifatida. Muloqot texnikasi va usullari. Pedagogik faoliyatda muloqot.

### **Shaxs**

Shaxs haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchalarining mazmuni. Shaxs shakllanishiga tasir etuvchi omillar. Shaxsning malaka va odatlari. Shaxs hususiyatlarini eksperimental tadqiq qilish va korreksiya qilish metodlari.

### **Diqqat**

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning fiziologik mexanizmlari. Diqqat turlari. Diqqatning asosiy xususiyatlari. Diqqat va faoliyat.

### **Sezgi**

Sezgi haqida tushuncha. Sezgining fiziologik asoslari. Sezgilarning tasnifi. Sezgi jarayonidagi qonuniyatlar.

### **Idrok**

Idrok haqida tushuncha. Idrokning fiziologik asoslari. Idrok turlari. Idrokning asosiy sifatleri. Idrokning individual xususiyatlari.

### **Xotira**

Xotira haqida tushuncha. Xotira nazariyalari. Xotira jarayonlari. Xotira turlari. Xotiraning individual psixologik farqlari. Xotirani rivojlantirish.

### **Xayol**

Xayol haqida tushuncha. Xayolning fiziologik asoslari. Xayol turlari. Xayol tasavvurlari. Xayol va ijodiyot.

### **Tafakkur**

Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur operatsiyalari. Tafakkurning mantiqiy shakllari. Tafakkur va masala yechish. Tafakkur turlari va individual xususiyatlari. Tafakkur va nutq.

### **Shaxsning xissiy emotsional soxasi**

Hissiyot haqida tushuncha, his-tuyg`ularning vazifalari, hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari, insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar, hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari, yuksak hislar .

### **Iroda**

Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi. Shaxsning irodaviy sifatleri.

### **Temperament**

Temperament haqida tushuncha. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. . Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari.

### **Xarakter**

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi. Xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tarkibi. Xarakterning shakllanishi.

### **Qobiliyat**

Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyatlarining sifati va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Qobiliyatlarining rivojlanishi. Iqtidorli bolalar va ularni ta

### **Yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari**

Yosh davrlari psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiyaning o`qituvchi faoliyatida tutgan o`rni. Yosh davrlari psixologiyasi faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiyaning sohalari va ahamiyati.

### **Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari.**

Yosh va pedagogik psixologiyaning tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat va so`rovnomma metodi, faoliyat mahsulini o`rganish metodi, test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi. o`quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo`llay olish.

## **Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi**

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o`ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi.

### **Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar**

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug`ilish davri inqirozi. «Tirilish kompleksi» haqida. Go`daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati (emotsional deprivatsiyaning salbiy oqibatlarini).

#### **Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish**

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O`yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida. Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrida emotsional-irodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi. Maktabgacha yosh davrining ijtimoiy-psixologik muammolari.

#### **Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning psixologik xususiyatlari**

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv - affektiv sohalaridagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrining ijtimoiy-psixologik muammolari.

#### **O`smirlik davrida psixik rivojlanish**

O`smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O`smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari. O`smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Iqtidorli bolalar va ularni tanlash. O`smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari. O`smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi. O`smirlik davrining ijtimoiy-psixologik muammolari.

#### **Ilk o`spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari**

Ilk o`spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Ilk o`spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o`spirinlik davrida do`stlashish muammosining psixologik xususiyatlari. Ilk o`spirinlik davrida o`zini-o`zi anglashning rivojlanishi. Ilk o`spirinlik davrida o`quv-kasbiy faoliyatning etakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muam

#### **Yoshlarni oilaviy hayotga tayorlash**

Oilaviy hayotga psixologik tayorlikning mohiyati. Yoshlarni oilaviy hayotga tayorlash haqida umumiy tushuncha. Oila funksiyalari. Oilada shaxslararo munosabatlar. Shaxs psixik taraqqiyotida oilaviy muhitning roli.

#### **Ta`lim psixologiyasi**

O`qish faoliyati va uning turlari. Ta`lim va bilimlarni o`zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari. Boshqarishning metodologik va nazariy asoslari.

Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasi va uning mohiyati. Ta'limni boshqarishning boshqa imkoniyatlarini qidirish, dasturlashtirilgan ta'limning psixologik asoslarini ishlab chiqish. Muammoli ta'lim va muammoli vaziyat.

### **Tarbiya psixologiyasi**

Shaxsni tarbiyalash metodlari va shakllari. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. Tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlash metodlari. Ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari. O'quvchilarni turmushga tayyorlash. Milliy ong va milliy g'ururni tarbiyalashning psixologik asoslari.

### **O'qituvchi psixologiyasi**

Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rnini va uning vazifalari. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchi shaxsi sifatleri. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari. Pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik qobiliyat.

### **Talim muassasalarida psixologik xizmat**

Talim muassasalarida psixologik xizmatning mazmuni va ahamiyati. Maktab psixologinining ish funksiyalari. Pedagogik faoliyatda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo'yicha maslahatlar olib borish texnologiyalari. Yosh psixologiyasi bo'yicha olib borilgan kuzatuv va eksperimentlarni rasmiylashtirish.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmiiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish;
- badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni psixologik tomondan kuzatib borish.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning taxminiy mavzulari:**

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti
2. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari.
3. Psixologiyaning tabiiy-ilmiiy asoslari
4. Hozirgi zamon psixologiyasining tarmoqlari.
5. Faoliyatning umumiy psixologik tavsifi
6. Ko'nikma, malaka va odatlarning shakllanishi

7. Motivatsiyani o'rganishga oid asosiy yondashishlar
8. Inson psixik taraqqiyotida muloqotning ahamiyati
9. Bolalarda nutqning shakllanishi
10. Shaxsni o'rganishning zamonaviy nazariyalari
11. Shaxs haqida tushuncha
12. Diqqatning psixologik nazariyalari
13. Diqqatning asosiy xususiyatlari va ularning eksperimental tadqiq qilinishi.
14. O'quvchilar diqqatini rivojlantirish
15. Sezgilar haqida umumiy tushuncha.
16. Sezgilar tasnifi
17. Idrok tabiati
18. Idrokning tasnifi va turlari.
19. Xotirani o'qish faoliyatida rivojlantirish.
20. Xotiraning individual psixologik farqlari.
21. Bolalarning o'yin va kattalarning ijodiy faoliyatida fantaziyaning ahamiyati.
22. Tizimli o'qitish jarayonida bola tafakkurining rivojlanishi
23. Emotsiyaning psixologik tavsifi
24. Shaxsning irodaviy xususiyatlari va ularning tuzilishi.
25. Shaxsning individual xususiyatlari
26. Temperamentning psixologik tavsifi
27. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari
28. Qobiliyatlarning rivojlanishi.
29. Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasi haqidagi fikrlari
30. Ilmiy psixologik maktablar.
31. Ta'limning mazmuni va psixik rivojlanish.
32. Faoliyat turlari.
33. Go'daklik va ilk bolalik davrida psixik rivojlanish.
34. O'yin - bolaning etakchi faoliyati sifatida.
35. Turli yosh davrlarida nutq faoliyatining rivojlanishi.
36. Kichik maktab yoshi davrida o'quv faoliyatining tarkib topishi, ish motivlarining rivojlanishi.
37. Kichik maktab o'quv jamoasida shaxslararo munosabatlar.
38. O'quv materialini yaxshi eslab qolish shartlari.
39. O'quv materialini o'zlashtirishda qiziqishning ahamiyati.
40. O'smirlar va kattalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning asosiy sabablari.
41. O'smirlar muloqotining psixologik xususiyatlari.
42. O'smir shaxsining shakllanishida orzuning tutgan o'rni.
43. O'quvchilarda iroda sifatlarini tarbiyalash yo'llari.
44. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi.
45. O'spirinlarning kasbga tayyorgarligi muammosi.
46. O'spirinlarda ijtimoiy va aqloqiy me'yorlarning shakllanishi.
47. O'spirinlarda ijodiy faollikning o'sishi, dunyoqarashning shakllanishi.

48. Ta'limning psixologik asoslari
49. Tarbiyaning psixologik mexanizmlari.
50. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar.

### **Fan dasturining informatsion-uslubiy ta'minoti Didaktik vositalar**

#### **Didaktik vositalar ro'yxati beriladi.**

**-jixozlar va uskunalar, moslamalar:** electron doska-Hitachi, LCD-monitor, electron ko'rsatgich (ukazka).

**-video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

**-kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati Rahbariyat adabiyotlari**

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.:O'zbekiston nashriyoti, 2011y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2008y.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
2. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб: Питер, 2007.
4. Ғозиев Э.Ғ. "Онтогенез психологияси".-Т.: Ношир. 2010.
5. Дусмухамедова Ш.А., Нишоновна З.Т., Жалилова С.Х., Каримова Ш. К., Алимбаева Ш.Т. "Ёш ва педагогик психология" Т. ТДПУ, 2013 .
6. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. "Psixologik xizmat".T. "Fan va texnologiyalar" nashriyoti 2014 y.



### Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Климов Э.А. Общая психология. - СПб., Питер, 2001
- 2.Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T., 2006
- 3.Немов Р.С. Психология. М.: Владос, 2003. 1-2-т.
- 4.Фридман Л.М. Психология воспитания. Книга для тех, кто любит детей. - М.: ГТС «Сфера»,1999.
- 5.Шелхова И.И. Техника педагогического общения. - М.: Изд-во «Институт практической психологии», 1998. .
- 6.Радугина А.А. Педагогика и психология. - М., 2007.
- 7.Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб: Питер, 2007.
- 8.N.S.Safayev, N.A.Mirashirova, N.G.Odilova Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti: o'quv qo'llanma. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

### Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.tdpu.uz
- 2.www.pedagog.uz
- 3.www.ziyouet.Uz
- 4.www.lex.uz;
- 5.www.bilim.uz;
- 6.www.gov.uz;







